

Xonobod shahar Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmatidagi katalog va kartotekalar tizimi to‘g‘risida

N I Z O M

I. Umumiy qism:

1.1. Shahar axborot-kutubxona markazi katalog va kartotekalar tizimi rejali tashkil etilgan. O‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro bog‘liq kutubxona katalogi va bibliografiya kartotekalari birligi bo‘lib, tuman jamg‘armasining tarkibi, turli qirralarini ochib beradi.

1.2. Shahar axborot-kutubxona markazi katalog va kartotekalar tizimi uning ma‘lumot-bibliografiya apparatining tarkibiy qismi.

1.3 Shahar axborot markazi katalog va kartotekalar tizimini shakllantirish va amalda qo‘llanilishi qo‘yidagi omillar bilan belgilanadi:

-kutubxonalar tizimi va boshqa madaniy – ma‘rifiy muassasa va tashkilotlar o‘rtasidagi vazifasi, maqsadi va o‘rni;

-markaz foydalanuvchilarining tarkibi va ular so‘rovlarini xarakteri;

-markaz va xizmat ko‘rsatish tizimi.

AKM katalog va kartotekalar tizimi ilmiylik, tejamkorlik, rejalik tamoyillari asosida tuziladi:

-ilmiylik tamoyili-kataloglashtirish davlat standartlari, kutubxona bibliografik klassifikatsiya jadvali talablari asosida ta‘minlanadi;

-qulaylik tamoyili-foydalanuvchi kataloglari tizimini tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Ularni maqsadga muvofiq joylashishi va bezatilishi kataloglarga yordamchi apparatlarni tashkil qilish va bezatish, foydalanuvchilarga axborot berish, ularni markazning barcha tadbirlari orqali kutubxona-bibliografiya bilimlarini targ‘ib qilish, malakali yordam berish uchun xizmat qiladi;

-tejamkorlik tamoyili-axborot-bibliografiya bilimlarini yuritishdagi muvofiqlashtirish asosida ta‘minlanadi;

II. Katalog va kartotekalar tizimining mohiyati va vazifalari:

2.1. Tuman axborot-kutubxona markazi katalog va kartotekalar tizimi markaz faoliyatining barcha maqsadi va vazifalari bajarilishini ta‘minlaydi. Katalog va kartotekalar tizimining asosiy vazifasi axborot berish va tarbiyaviylikdir.

III. Katalog va kartotekalar tizimining tarkibi:

3.1 Katalog va kartotekalar tizimiga bosma nashrlar turi, mohiyatiga ko‘ra jamlash, guruhlash va shakliga ko‘ra farqlanuvchi katalog kartotekalar kiradi.

3.2. Shahar axborot kutubxona markazida:

- adabiyot, risolalar katalogi;

- vaqtlı matbuot nashrlari ; gazeta va jurnal maqolalari sistemali kartotekasi ; badiiy adabiyotlar sarlavhalari kartotekasi;

- o‘lkashunoslik kartotekasi.

3.3 Mohiyatga ko‘ra katalog, kartotekalar foydalanuvchilarga mo‘ljallangan, shuningdek xizmat vazifasini bajaruvchilarga bo‘linadi .

3.4. Guruhlashtirish usuliga ko‘ra alfavitli va sistemali katalog va kartotekalarga bo‘linadi.

3.5. Katalog va kartotekalar - ko‘rsatkichlar kartochna, elektron shaklida, shuningdek kitob nashri shaklida tavsiya etilishi mumkin. Jamg‘armadagi yangi adabiyotlar ro‘yxati orqali nashr qilinadi.

3.6. Ko‘rsatkichlar katalog va kartotekalardan qidiruvchi to‘la va tezkor bo‘lishini ta‘minlaydi.

IV. Katalog va kartotekalarni va boshqa qismlar bilan aloqasi:

4.1. Katalog va kartotekalar o‘zaro bibliografiya tasvirining birligi, indekslarning klassifikatsiyasi, kartochnalarni joylashtirilishi, ma‘lumot-apparati yo‘naltirgichlari va boshqalar bilan aloqadordir.

4.2. Katalog va kartoteka axborot-bibliografiya apparati boshqa qismlar bilan ham aloqador, birinchi navbatda ma‘lumot-bibliografiya jamg‘armasi bilan.

V. Katalog va kartotekalarni tashkil qilish yuritish va tahrir qilish:

5.1. Katalog va kartotekalarni tashkil qilish, yuritish tahrir qilish tasdiqlangan texnologik ko'rsatmalarga muvofiq yagona uslubiy tamoyillar asosida olib boriladi.

VI. Katalog, kartotekalar va ular haqida axborotlarni foydalanuvchilar o'rtasida targ'ib qilish:

6.1. Foydalanuvchilar o'rtasida katalog va kartotekalar haqida axborot berish, targ'ib qilish kutubxona-bibliografiya bilimlarini targ'ib qilishning muhim tarkibiy qismidir.

Tanishdim:

Axborot-bibliografiya xizmat rahbari:

Axborot-bibliografiya xizmati mutaxassisi:



G.Aminova

R.Turgunova